

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAP TARKIBIDA KVANTITATIV SINTAKSEMALARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI

Sitora Nishanova Abduraimovna

Samarkand davlat chet tillar instituti

Ikkinchi chet tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ingliz va o'zbek tillari misolida kvantitativ sintaksema asosan kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan qiyosiy tipologiya doirasida tahlil qilish mumkin. Mazkur maqoloda kategorial belgilardan sintaksemalar doirasida paradigmatic qatorini aniqlashga to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: kvantitativ, kvalitativ, tipologik, morfologiya, kesim

COMPARATIVE-TYPOLOGICAL STUDY OF QUANTITATIVE SYNTAXES IN SENTENCE COMPOSITION IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. On the example of English and Uzbek, the quantitative syntax can be analyzed mainly from categorical differential syntactic-semantic characters in the framework of comparative typology. This article explains that dwell on the definition of a paradigmatic series from categorical characters in the framework of syntax.

Key words: quantitative, qualitative, typology, morphology, predicate

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КОЛИЧЕСТВЕННЫХ СИНТАКСИСОВ В СОСТАВЕ ПРЕДЛОЖЕНИЙ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. На примере английского и узбекского языков количественный синтаксис может быть проанализирован в основном по категориальным дифференциальным синтаксико-семантическим признакам в рамках сравнительной типологии. В этой статье объясняется, что мы останавливаемся на определении парадигматического ряда по категориальным признакам в рамках синтаксиса.

Ключевые слова: количественный, качественный, типология, морфология, сказуемое

Tipologiya fani tillar sistemalarining turli iyerarxik birliklarini qiyosan umumlashtirib o'rganadi va mazmun rejaga muvofiq, formal tipologiya, semantik tipologiyaga bo'linadi.

Formal tipologiya ifoda rejasi birliklarining tipologik xususiyatlarini o'rganib, fonologik, morfologik va sintaktik tipologiyadan tashkil topadi.¹

Formal tipologiya asosan tilning morfologik va sintaktik yaruslarining formal tomonlariga ko'proq ahamiyat berib, ularning ma'lum struktur belgilarini turli tillar tizimida o'rganadi.

Semantik tipologiya mazmun rejasi birliklarini tipologik tadqiq qiladi. Mazmun rejasi deganda tilning semantik strukturasi tushuniladi. Tipologik qiyoslash semantik qiyoslashni ham o'z ichiga oladi. Semantik qiyoslash semantik tipologiya asosida yuzaga keladi. Semantik tipologiya semantik kategoriyalarning ifodalanishidagi mushtaraklikni mavhumlashtiradi va ma'lum tushunchalarning turli tillar tizimi ifoda rejasi birliklari vositasida talqin etilishini o'rganadi. Turli tillar lug'atlarini tuzishda, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda semantik tipologiya qonunlarining amaliy ahamiyati katta.

Tillar har xil bo'lsa ham ularning tizimidagi ma'lum semantik kategoriyalarni ifodalovchi so'zlar muayyan guruhlarini tashkil qiladi. Semantik tipologiyada ba'zi kategoriyalar umumiy, ba'zilari esa faqat ayrim tillargagina xos bo'ladi. Semantik tipologiya semantik maydonni aniqlashda katta rol o'ynaydi.

Ushbu maqoladan kutilayotgan maqsad kesim o'rnida kelgan elementlarning differensial sintaktik va semantik belgilarini aniqlash, ularning tipologiyasini hamda har ikkala tilda kesim o'rnida kelgan sintaktik elementlardagi izomorflik va allomorflik ko'rinishlarini topish, ularning ifoda variantlarini aniqlash, hamda u yoki bu sintaktik aloqalar yordamida qanday differensial sintaktik va semantik belgilar bilan birika olishini aniqlashdan iboratdir. Ma'lumki, gapda har qanday sintaktik o'rin sintaksemalarga ajratishda asos qilib olinishi mumkin. Lekin, mazkur ishda ingliz va o'zbek tilidagi gaplarda kesim o'rnida kelgan sintaktik birlik asos qilinib olinadi.

¹ Б.Ю.Городецкий. К проблеме семантической типологии. Из-во МГУ. 1969, стр. 125-126.

Umuman, gapdagi komponentlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish har bir elementni u yoki bu o'ringa sintaktik qatlamda semantik maydonini topishdir. Masalan, bir element har ikkala tillarda ham turlicha komponentli gaplarda turli o'rinlarda kelib, har xil semantik maydonga ega bo'lishi mumkin. Ingliz tilidagi *a pen* va o'zbek tilidagi *ruchka* so'zini olsak, quyidagi gaplarda yuqorida aytilgan fikrning guvohi bo'lishimiz mumkin :

- | | |
|--------------------------------------|--|
| 1. <i>I buy <u>a pen</u>.</i> | 1. <i>Men <u>ruchka</u> sotib olaman.</i> |
| 2. <i><u>A pen</u> writes.</i> | 2. <i><u>Ruchka</u> yozadi.</i> |
| 3. <i>I write <u>with a pen</u>.</i> | 3. <i>Men <u>ruchka bilan</u> yozaman.</i> |

Agarda *pen*, *ruchka* so'zlarining leksik ma'nosidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu so'zlar predmetni ifoda etadi, ammo sintaktik qatlamda har xil semantik maydonga ega bo'ladi. Birinchi gapda *a pen*, *ruchka* so'zlari kategorial belgilardan substansiallikka ega bo'lib, nokategorial belgilardan esa obyektlik, ikkinchi gapda agenslik (harakat ijrochisi) belgisini oladi. Uchinchi gapda esa substansiallik belgisidan tashqari *with a pen*, *ruchka bilan* so'zlari instrumentallik belgisiga ega bo'ladi. Bu gaplarning sintaksem modellari quyidagichadir:

Ingliz tilida:

O'zbek tilida:

- | | |
|---|---|
| (1) <i>Sb Ag . Pr Ac . <u>Sb Ob</u>;</i> | (1) <i>Sb Ag . <u>Sb Ob</u> . Pr Ac;</i> |
| (2) <i><u>Sb Ag</u> . Pr Ac;</i> | (2) <i><u>Sb Ag</u> . Pr Ac;</i> |
| (3) <i>Sb Ag . Pr Ac . <u>Sb Ins</u>;</i> | (3) <i>Sb Ag . <u>Sb Ins</u> . Pr Ac;</i> |

Ko'rinib turibdiki, *pen*, *ruchka* so'zlari sintaktik qatlamda har ikkala tillardagi gaplarda kategorial belgilardan substansiallikka ega bo'lsa, nokategorial, differensial sintaktik-semantik belgilardan turli o'rinlarda turlicha, ya'ni obyektlik, agenslik, instrumentlik belgilariga egadir.

Ammo, bu ishimizda faqat kesim o'rnida kelgan sintaktik birliklar har ikkala tillardagi gaplar misolida tadqiq etiladi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda asosan uchta kategorial belgilar aniqlanadi. Bular prosessuallik, substansiallik va kvalifikativlikdir.² Ular asosida esa bir qancha nokategorial belgilar aniqlanadi. Bu

² Процессуаллик-иш ҳаракатни ёки ҳолатни ифодаловчи синтактик бирликдир; Субстанциаллик-шахсни, предметни от, олмош кабилар ёрдамида ифодаланишидир; Квалификативлик-предмет ёки шахснинг белгиси, сони, иш-ҳаракат бажарилиш тарзини ифодалайди. Қаранг: Мухин А.М. Синтаксемный анализ

категориал белгилардан кесим о'рнida келган квалификатив синтаксемаларни инглиз ва о'збек тиллари мисолida ко'риб чиқамиз.

Квантитативлик дифференциал синтактик семантик белги бо'либ, квалификативликнинг нокатегориал белгиларидан бири ҳисобланади. U гапдаги NP1 о'рнida келган элементга сон вазифасини yuklayди: 1) *He was eleven and Cheese-Face was thirteen* (JLM,145) – *U paytda Martin o'n birda, Moy Qovoq esa o'n uchda edi* (JLM, 141); 2) *She was nearly fourty* (SMP,50); *Davlat narxi esa bor-yo'g'i o'n ming* (TMD, 432); 3) *Ettore was twenty three* (EHF,90); *Bir jo'ra atlas ikki yuz so'm ekan* (TMD, 95).

Gaplarda NP2 о'рнida келган элементлар, ya'ni 1) *was eleven, was thirteen, o'n birda, o'n uchda edi*; 2) *was fourty, o'n ming*; 3) *was twenty three, ikki yuz so'm ekan* so'zlari NP1 о'рнida келган *He, Cheese-Face, U, Moy Qovoq, She, narxi, Ettore, atlas* kabi синтактик birliklarni сон jihatdan izohlab, ifodalangan квантитативлик белгисини ularga yuklayди.

Faktik materiallarga qaraganimizda gapda NP2 о'рнida келган элемент квантитативликдан tashqari elektivlik (tanlov) белгисини ham o'z ichiga olishi mumkin: 4) *She was one of them* (JLM,25) - *U o'shalardan biri*

5) *She is one in a shadow* (SMP,214) - *U mingdan biri*

Ma'lumki, ingliz tilida квантитативлик дифференциал синтактик – семантик белгиси *to be* fe'lining shaxsli shakli va sonning birikishi bilan ifodalansa, o'zbek tilida esa hozirgi zamonda yaxlit сон bilan, o'tgan yoki kelasi zamonlarda *son + ko'makchi* yoki *to'liqsiz fe'l* yordamida ifodalanadi.

Ma'lumki aktiv so'zi lotincha "activ" so'zidan olingan bo'lib, «harakat» ma'nosini ifodalaydi. Bu синтаксема ingliz tilida NP2 о'рнida quyidagicha beriladi:

1) *I went out to meet her* (EHF, 102);

2) *A bat flew into the room* (EHF, 73).

Gaplardagi *went out, flew* elementlari fe'llar bilan ifodalangan bo'lib, ular prosessual-aktivlik ma'nosini ifoda etadi. Aktivlik белгиси ushbu синтактик birliklarning NP2 о'рнida kelib, yadro predikativ aloqa asosida agentiv (harakat

и проблемы уровней языка. – Ленинград: Наука. Ленинград. отделения, 1980. –304 с.

bajaruvchi) sintaksema bilan birikib kelishi orqali aniqlanadi va isbotlanadi. Bu sintaksemlar gaplarda o'timli va o'timsiz fe'llar bilan ifodalanib, fe'lning aniq nisbatida beriladi va harakatni ifodalaydi. Bu harakat subyekt tomonidan bajariladi. NP1 (yadro predikativlik I) o'rnida kelgan elementlar, ya'ni *I, a bat* so'zlari

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, ingliz va o'zbek tillaridagi kesim o'rnida kelgan elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini sintaktik qatlamda tahlil qilishga bag'ishlanadi. Sintaksemlarga ajratib tahlil qilishdan asosiy maqsad, har ikkala tildagi gaplarda kesim o'rnida kelgan elementlarning gapdagi tutgan o'rniga ko'ra semantik maydonini aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 64 б.
2. Адмони В.Г. Структурно-смысловая ядро предложения // Члены предложения в языках различных типов. – Л.: Наука, 1972. – С. 3-17.
3. Акрамов Т. Именные сказуемые в современном узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: ТГУ, 1967. – 26 с.
4. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. – Л.: Просвещение, 1979. - 259 с.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969. – 608 с.